

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BUYUK IPAQ YO'LI-XALQLAR VA MILLATLARNI BIRLASHTIRGAN SAVDO YO'LI**

**Rahmonova Madina Rahmatullayevna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail:madinarakhmonova53@gmail.com*

*Tell:+998932673109*

**Abdullahayeva Mushtariy G'ofurjon qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail:mushtariyabdullahayeva@gmail.com*

*Tell:+998975500073*

**Yo'ldoshova Feruza Akram qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail:feruzayoldoshova@gmail.com*

*Tell:+998919102511*

**Tog'oymurodova Aziza Sa'dullayevna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail:togaymurodovaaziza@gmail.com*

*Tell:+998991290680*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xalqlar va millatlarning o'zaro savdo,iqtisodiy,ijtimoiy va madaniy almashunuviga katta ssa qo'shgan buyuk ipak yo'lining shakklanishi,tarixiy davomiyligi,tarraqiyot bosqichi haqida ma'lumotlar keltirilgan*

**Kalit so'zlar:** Buyuk ipak yo'li,Xan,Chjan Syan, Dovon, Xitoy, Rixtgofen, transit,aloqa,madaniyat,Temuriylar,O'rta osiyo,Sharq,Sariq dengiz.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о становлении, исторической преемственности и этапах развития Великого Шелкового пути, который в значительной степени способствовал взаимному торговому, экономическому, социальному и культурному обмену народов и наций.

**Ключевые слова:** Великий шелковый путь, Хань, Чжан Сян, перевал, Китай, Рихтгофен, транзит, сообщение, культура, Тимуриды, Средняя Азия, Восток, Желтое море.

**Abstract:** This article provides information about the formation, historical continuity, and development stage of the Great Silk Road, which contributed greatly to the mutual trade, economic, social and cultural exchange of peoples and nations.

**Key words:** Great Silk Road, Han, Zhang Xiang, Pass, China, Richthofen, transit, communication, culture, Timurids, Central Asia, East, Yellow Sea.

Buyuk ipak yo`li tug`risida fikr yuritar ekanmiz, bu qadimiyo yo`lning necha asrlar davomida ne-ne mamlakatlar va xalqlarni bir-biriga bog`lash, aloqalarini mustah-kamplashdagi mislsiz xizmatini aloxida ta`kidlab o`tish joiz bo`ladi.Ilk bor Xitoy

hududidan boshlanib g`arbga tomon minglarcha kilometr masofaga cho`zilgan ( 12 ming km.), [ 1: 814-b] Sharq bilan g`arbni tutashtirgan. Bu noyob savdo yo`li ulug` ajdodlarimiz sa`y-harakatlari samarasi o`laroq umumbashariyat tarixiy taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan. Ayniqsa, bu yo`lning Vatanimiz sarhadlaridan o`tganligi uning tarixiy taqdirida, iqtisodiy-madaniy yuksalishida hamda boshqa xorijiy ellar bilan izchil hamkorlik va xamjihatlikda katta ijobjiy rol o`ynagan.Buyuk ipak yo`li tushunchsini birinchi bo`lib fanga taniqli nemis olimi Fon Rixgofen olib kirgan.[2: 101-b.] U XIX asrning 70-yillarida yozgan «Xitoy» nomli klassik asarida bu terminni chuqur ilmiy asoslab berdi. Ushbu yo`lning vujudga kelishi Xan imperiyasi elchisi Chjan Syan sababchidir.Chjan Syan - xitoylik diplomat va sayyoh bo`lib,Xitoy uchun uzoq davrlar davomida yopiq bo`lgan O'rta Osiyoga birinch marta borib,ushbu mintaqadagi yo'llar,mamlakatlar va xalqlar haqida ma'lumot to'plab kelgan birinchi davlat elchisidir[3: 146-b.] Manbalarda keltirilishicha mil.avv.140-yilda Xan sulolasiga taxtiga Lyu Che[mil.avv.156-87]o'tiradi.shu munosabat bilan unga,xitoyliklar ananasiga ko'ra U-Di [jangovor xoqon]deb nom beriladi[4: 17-bob.54-b.].Azaliy dushmanlari xunnlarga qarshi ittifoqchi topish uchun elchi Chjan Syanni mil.avv.138-yil asli kelib chiqishi xunnlardan bo`lgan,serg'ayrat tarjimon Tangiy Ganfu xamrohligida sharqqa jo'natadi.Ammo ular ko'p yurmasdan Kurona mamlakatida xunnlar qo'liga tushib qoladi.[4: 17-bob,54-b.].Oradan 10 yil o'tgandan so'ng u yerdan qochib,Farg'onaga yetib boradi.Chjan Syanning shaxssan o'zi Farg'ona,Da-Yueji,Baqtriya,Qang'kiya kabi davlatlarga borgan.[5: 67-bob.67-75-b.] Ularning atrofidagi 5-6 davlat haqida boshqalar orqali surishtirib bilib,ularning hududi,boyligi va iqtisodiy ahvoli to'g'risida o'z hukmdori U-Di ga axborot borgan.[5: 67-bob.67-75-b.]Elchi Chjan Syanning bosgan qadami va yurgan yo`li orqali keyinchalik "Buyuk ipak yo`li"nomini olgan savdo yo`li vujudga keldi. Tadqiqotchilarining fikrlariga qaraganda, mil. avv. III asrning oxiri-II asrlarda xalqaro ahamiyatga va aniq yo`nalishga ega bo`lgan savdotranxit yo`li shakllana boshlaydi. Buyuk ipak yo`li orqali Xitoydan ipak,chinni idishlar,choy va boshqa mahsulotlar chet mamlakatlarga chiqarilgan.[6: 149-b.] Buyuk ipak yo`li Sharqu G`arbni bog`lovchi, turli mamlakatlarning savdo-sotiq, tijorat aloqalarining eng asosiy vositasi bo`lgandan, bu yo`nalishda joylashgan davlatlar undan o`z manfaatlari yo`lida foydalanishga yohud bu borada o`z mavqeini mustahkamlashga intilganlar. Shu bois turli tarixiy bosqichlarda turli davlatlar bunga intilib, Buyuk ipak yo`li ustidan o`z nazoratlarini o`rnatganlar. Masalan, mil.av. VI-IV asrlarda Eron ahmoniylari, mil.av. IV asrda esa makedoniyalik Iskandar, mil.av. II-I asrlarda Rim Parfiya davlatlari o`rtasida bu borada qattiq raqobat ketdi. Yohud arab xalifaligi vujudga kelgunga qadar bu yo`lning Eron va Sug`diyona hududlaridan o`tgan qismida Eron va Sug`d savdogarları yetakchilik rolini o`ynaganlar. Arab halifaligi kuchayib, ko`plab hududlarni qo`lga kiritgach, bu yo`l arab savdogarları tasarrufiga o`tadi. Chingiziylar davrida Buyuk ipak yo`lining tasarrufida butunlay ularning qo`l ostida bo`lgan. Buyuk sohibqiron Amir Temur davriga kelib uning qudratli sultanati vujudga kelgach, Buyuk

ipak yo`li sarhadlari yangidan kengayib, katta miqyoslar kasb etib, yanada rivoj topadi. Buyuk ipak yo`lining shuhrati ayniqsa, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda, ya`ni Amir Temur qudratli markazlashgan davlat barpo etish barobarida uning barcha hududlarida tinchlik va osoyishtalik o`rnatdi. Uning o`zi tuzuklarida: «Dunyoning yarmini oldim, salatnatimning u chetida bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tillo ko`tarib o`tadigan bo`lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o`rnatdim», deb aytgan so`zleri beziz emasdir. Katta salohiyat egasi bo`lgan Sohibqiron mamlakatning yuksak rivojida xalqaro savdoning nechog`lik ulkan ahamiyat kasb etishini bilganligidan. Bu sohani butun choralar bilan o`stirishga alohida etibor bergen. Bunda yurt tinchligi, ulus farovonligi masalalari xar doim uning diqqat markazida turgan. Shu bois ulug` Amir savdo yo`llarini qo`riqlash, odamlar, musofirlar, turli yurt savdogarları manfaatlarını bosqinchilar, qaroqchilar tajovuzidan muhofaza qilishni muhim davlat ahamiyatiga molik vazifalardan deb hisoblagan. Tuzuklarda: «...yana buyurdimki, yo`l ustiga kuzatuvchilar, zabitlar tayinlasin-lar-ki, yo`llarni qo`riqlab, o`tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarni manzildan-manzilga yetkazib qo`ysinlar. Yo`l ustida birortasining narsasi yo`qolsa, o`zi o`ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javob berish ularning zimmasida bo`lsin.» deb beziz ta`kidlab o`tmagan. Amir Temur tashabbusi bilan mamlakatning har bir yirik shaharlarida savdo karvonlarining kirishi va chiqishini nazorat qiluvchi davlat nazorat xizmati va maxsus bojxonalar tashkil etilgan. Savdo karvonlaridan mollarning hajmi. Miqdoriga qarab boj to`lovlar undirilgan. Bu davrda poytaxt Samarqand dunyo savdogarlarining yirik markaziga aylandi. Uning keng ko`chalar bo`ylab maxsus qurilgan muhtasham karvonsaroylar, savdo bozorlari, rastalarda tunu-kun savdo ishlari to`xtamagan. Turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar o`z mollarini xaridorlarga sotganlar yohud o`zlariga kerakli mollarni xarid qilganlar.

Buyuk ipak yo`li XVI asrdan etiboran o`z ahamiyati va rolini yo`qotib, tushkunlik sari yuz tutdi. Bu hollarni qanday sabablar bilan izohlash mumkin. tabiiyki, bu jarayon o`z-o`zidan, bir lahzada to`satdan sodir bo`lgani yo`q, albatta. Bizning nazarimizda, Buyuk ipak yo`li ahamiyatining so`nib, pasayib borishi bir qator ob`yektiv va sub`yektiv sabablar orqasida, tarixiy jarayonlarning murakkab, ziddiyatli kechishi davomida yuz bergenligi shubhasiz. [7: 512-b]

Birinchidan, Amir Temur va Temuriylar sulolasining pirovard oqibatda chuqr inqirozga yo`liqishi va tarix sahnasi boshqa hukmron sulolalarining, chunonchi, Shayboniyxonlar, Ashtarkoniylar sulolasining chiqishi hamda ularning boshqaruv usulining g`oyatda murakkab kechganligi, markaziy hokimiyatning kuchsizlanib mamlakat hududlarining tarqoq holatda uchrashi, o`z qobig`iga o`ralishi va hokazo hollar bu hududning tashqi dunyodan tobora ajralishiga bois bo`ldi.

Ikkinchidan, Turkistondagi xonliklar, amir-beklar, sultonlar o`rtasida hokimiyat talashib olib borilgan o`zaro jangu-jadallar, doimiy qon to`kishlar natijasida o`lka tobora iqtisodiy bo`hronlarga duch kela bordi, siyosiy beqarorlik avj oldi. Mamlakat

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

tashqi davlatlar bilan aloqalar bog`lash, iqtisodiy, savdo-sotiqlar bobida hamkorlik qilish imkoniyatlaridan mahrum bo`ldi.

Uchinchidan, ilg`or Yevropa olimlari, sayyoohlari tomonidan XV-XVI asrlardan e`tiboran boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar, bularning natijasida jahonning turli qutblari tomon yangi, qulay suv yo`llarining ochilishi, shu jumladan, Hindiston, Xitoy va boshqa sharqiy-janubiy mamlakatlarga tomon shunday yo`llarning kashf etilishi, bular Buyuk ipak yo`li shuhratining pasayishi va so`nib borishga olib keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Buyuk ipak yo`li insoniyatga XV asr dan ko`roq davomida o`zaro aloqlarda xizmatqilgan savdo yo`lidir. Buyuk ipak yo`li orqali nafaqat savdo karvonlari, balki xalqlarning erishgan madaniy yutuqlari, ma`naviy qadriyatlari, diniy g`oyalari ham jahonga tarqalib borar edi. Buyuk Ipak yo`lining qoq yuragi bo`lgan Samarqand shahridan o`rta asrlardagi Sharqning buyuk sarkardasi Temur o`zyurishlarini boshlab, zafar quchar edi. Bundan tashqari, karvon yo`llaridan asrlar bo`yi allomalar, tadqiqotchilar ham sayohat qilar edi. Xitoy ruhoniysi Syuan Tszyan va venetsiyalik savdogar Marko Polo, arab sayohatchisi – savdogar Ahmad ibn Fadlan va bavariyalik sarkor Shiltberger, vengriyalik tadqiqotchi Arminiy Vamberi hamda shvetsiyalik geograf Sven Xedin, rus olimi Aleksey Fedchenko va frantsiyalik juralist ayoli Ella Mayyar, amerikalik geolog olim Rafael Pampelli va frantsiyalik sayohatchi Jozef Martenlarning yo`lda qayd etgan yozuvlari va ilmiy asarlaridan biz Buyuk Ipak yo`li bo`ylab yotgan mamlakatlarda yashagan xalqlarning tarixini, ularning urf-odatlari va an'analarini bilib olishimiz mumkin

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Milliy Enksklopediyasi I jild.Toshkent 2005.814-bet
- 2.O'zbekiston tarixi-R.H.Murtozoyev.Toshkent.2005.96-101-bet.
- 3.Buyuk ipak yo`li-A.Xo'jayev.Toshkent.2007/146-bet
- 4.Shi-Ji{Tarixiy xotiralar}-Sima Yan,Sima Chyan.130 bob/17-bob;54-bet.
- 5.Xan-Shu{Xan sulolasi tarixi}-Ban Gu.200 bob/67-bob;67-75-bet.
- 6.Qadimgidavr{Iqism}B.Boymenov,U.Shoimov,F.Bozorboyev,F.Sultonov,Sh.Yodgorov,Toshkent/2006. 149-150-bet.
- 7.O'zbekistonda moziye'tiqodlari tarixi-X.Karomatov;Toshkent.2008./512-bet.